



YANGI O‘ZBEKISTONDA O‘ZBEK MILLIY TEATRINING JAMIYAT MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Rashidov Mahmud Rasulovich,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
“Estrada va ommaviy tomoshalar san‘ati”
kafedrasi professori.

Annotatsiya: Bugungi globallashuv zamonida har bir millatning o‘ziga xosligi va etnik qadriyatlarini saqlab qolish, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarni aks ettirish, xalqning ma’naviy-ma’rifiy immunitetini oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashda teatr san‘ati muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda milliy teatrning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Teatr san‘ati, dramaturgiya, rejissura, uchinchi renessans, tafakkur, spektakl, xalqaro madaniy aloqalar, festival.

ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ТЕАТРА В КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В современную эпоху глобализации театральное искусство играет важную роль в сохранении самобытности и этнических ценностей каждой нации, отображении событий, происходящих в общественной жизни, повышении духовного и образовательного иммунитета народа, воспитании молодежи в духе преданности к национальным и общечеловеческим идеалам. В данной статье рассматривается значение национального театра в культурной жизни общества Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Театральное искусство, драматургия, режиссура, третий Ренессанс, мысль, спектакль, международные культурные связи, фестиваль.

IN NEW UZBEKISTAN UZBEK NATIONAL THEATER SIGNIFICANCE IN THE CULTURAL LIFE OF SOCIETY

Annotation: In the modern era of globalization, theatrical art plays an important role in preserving the identity and ethnic values of each nation, displaying events taking place in public life, increasing the spiritual and educational immunity of the people, and educating young people in the spirit of devotion to national and universal ideals. This article examines the importance of the national theater in the cultural life of the society of New Uzbekistan.

Key words: *Theatrical art, drama, directing, third Renaissance, thought, performance, international cultural relations, festival.*

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

KIRISH. Yangilanayotgan O‘zbekistonda milliy madaniyat va san’atning barcha sohalarini qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni takomillashtirish, badiiy-barkamol san’at asarlari yaratish orqali xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga ezgu g‘oyalarni singdirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda teatr san’atining badiiy-ijodiy va ijtimoiy funksiyalaridan foydalanish yaxshi natija bermoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida madaniy hayotimizning barcha jabhalari qatori teatr san’atiga ham alohida to‘xtalib, “teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish, unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish, korxona va muassasalarda oyning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrga borishlarini yo‘lga qo‘yish” singari muhim ustuvor vazifalarni ta’kidlab o‘tgandi[1].

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, teatrning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirish, zamonaviy spektakllarning yaratilishiga imkoniyat yaratish, teatrning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va malakali kadrlarni shakllantirish borasida ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-madaniy, mafkuraviy jarayonlarda xalqlarning, millatlarning o‘zligini anglash, fuqarolarga milliy ruhni singdirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda har bir xalq madaniyatini keng yoyish milliy teatr san’atini targ‘ib qilish, uning an’analarini asrab-avaylash hamda rivojlantirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratish zaruriyatini taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida dunyo xalqlarining tarixi, o‘ziga xos madaniyati va san’atini umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda o‘rganish dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ma’rifatparvarlar Turkistonga kirib kelgan rus, ozarbayjon, tatar gastrol truppalari namoyish etgan sahna asarlarini olib o‘rgandilar va yevropaga xos teatr san’ati ustuni yaratildi. Jadidchilik namoyondalari tomonidan sahnalashtirilgan “Padarkush”, “Baxtsiz kuyov”, “To‘y”, “Juvonmarg”, “Mazluma xotin”, “Eski maktab, yangi maktab”, asarlarining barchasi xalqning kundalik hayotini ochib berishga qaratilgan. Ularning asosiy mazmuni xalq ongiga yangicha ta’lim-tarbiyaning ahamiyatini

singdirish, jamiyatda ilmsizlik natijasida kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni tanqid qilishdan iborat edi.

Jadid ziyolilari sahna asarlarining o‘ziga xos xususiyati (ayniqsa hajviy pyesalar) yaratilgan asarlarda og‘zaki dramaturgiya, xalq maydon teatri an‘analari, qahramonlari ta’siri yaqqol seziladi. Shu bilan birga, jadid dramalari va komediyalarining sahnaviy talqinlarida Yevropa tipidagi teatrga intilish sezilganligini ko‘rish mumkin. Sahna uchun tayyorlangan tomoshalar teatr binosida yoki maxsus sahnalarda ko‘rsatila boshlangan.

Jadidchilik harakati hamda o‘zbek jadid dramaturgiyasi haqida san‘atshunos olim Sh.Rizayev ham o‘zining tadqiqotlarida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Olimning fikricha, o‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatrining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqozosi va ehtiyoji tufayli sodir bo‘lgan[2]. 1911-yilda Maxmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush yoxud O‘qumagan bolaning holi” nomli “3 parda 4 manzarali milliy, birinchi fojia”sini yozadi. Ushbu asar 1913-yili Samarqandda alohida kitob holida chop etiladi. “Padarkush” pyesasining e’lon qilinishi bu Behbudiy yoki Samarqand shahri ziyolilari uchun ahmiyatli bir hodisa bo‘lmay, butun Turkistonda ijtimoiy-madaniy hayotning yanada jonlanmog‘i uchun, teatr havaskorlari negizida yangi-yangi ma’rifatchi jamoalar maydonga kelishi uchun turtki bo‘lgan.

NATIJA VA MUHOKAMA. San‘at turlari orasida teatr o‘zining jonli tabiati, ta’sirchanligi, inson ruhiyati, shuuriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi, muayyan voqea-hodisani tomoshabin ko‘z o‘ngida aniq-yorqin gavdalantirishi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. “Sahna bilan tomoshabinlar zali o‘rtasida samimiy bog‘lanish, muloqot hosil bo‘lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma’nan boyitadi, ruhini sozlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Ya’ni ikki tomonlama ta’sirlanish hosil bo‘ladi”[3].

Shuningdek, teatr ijtimoiy minbar sifatida ko‘pchilikning dunyoqarashini aks ettirib, jamiyatdagi o‘zgarishlar, mafkuraviy jarayonlarga munosabat bildirishi va shu orqali ijtimoiy fikrning shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

“Teatr san‘ati azaldan xalq orzu-armonlarini, quvonchi va tashvishlarini, kurashini ifodalovchi san‘at sifatida shakllangani ma’lum. Ammo, mustabid tuzum hukmronligi yillari davomida uni “zanjirband” etishga, yolg‘on ideologiyaning jarchisiga aylantirishga zo‘r berib intildilar. Buning natijasida milliy teatrimiz sahnasi uzoq yillar asosan “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” g‘oyalar va ularni targ‘ib etuvchi yasama ijobiy qahramonlar maydoniga aylanib keldi” [4]. Mustaqillik davri o‘zbek teatri badiiy-g‘oyaviy, ijtimoiy-mafkuraviy jihatdan ko‘plab o‘zgarishlarga yuz tutdi. Sovet davridagi sotsialistik realizm qoliplaridan xoli bo‘lib, yangi mazmun, shakl va ifodalar bilan boyidi. Xususan, tarixiy shaxslarga munosabat va yondashuv tubdan o‘zgardi, o‘tmishdagi ulug‘ ajdodlarimiz haqida xolis va haqqoniy fikr yuritish imkoniyati tug‘ildi. Bu esa teatr ijodkorlarini yanada ruhlantirib, turli mavzu va janrdagi yangi sahna asarlari yaratishga undadi.

Istiqlol yillari mamlakatimiz teatrlarida tarixiy mavzudagi asarlarga e’tibor kuchaydi. Bu jarayon bevosita xalqimizning milliy qadriyatlari, tarixiy xotirasini qayta tiklash, ulug‘ ajdodlarimizning jasorati, ilmiy-ma’rifiy merosini yuzaga chiqishi bilan bog‘liq edi.

Teatrlarimizda Spitamen, At-Termiziy, Imom Buxoriy, Al-Farg‘oniy, Umar Hayyom, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodirabegim, Ogahiy singari buyuk shaxslarga bag‘ishlangan tarixiy spektakllar sahnaga qo‘yildi. “O‘tgan davrda tarixiy mavzuda yaratilgan sahnaviy asarlar orasida tarixiy-biografik xarakterdagilari son jihatdan yetakchilik qildi. Bunga sabab, avvalo, xalqning buyuk o‘tmishdoshlari hayoti va faoliyatiga qiziqishi bo‘lsa, ikkinchidan, buyuk allomalar yubileylari munosabati bilan hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlar ham bunga turtki bo‘ldi. Ushbu yillarda tarixiy mavzuda respublika teatrlarida yuzdan ortiq asar sahnalashtirilganining o‘zi fikrimizning isbotidir. Ayniqsa, dastlabki o‘n yillikda tarixiy mavzu sahna san‘atida yetakchi mavqeda bo‘ldi” [5].

Eng qadimgi davrlardan to mamlakatimizga islom dini kirib kelguniga qadar kechgan voqeliklar, yashagan tarixiy shaxslar haqida ham ko‘plab asarlar yaratildi va sahnalashtirildi. Xususan, Yo‘ldosh Muqimovning “Avesto” haqidagi “Mangu mash‘al”, Komil Avazning “Avesto” – mehr farzandi”, Y.Muqimov va Hayitmat Rasulning Spitamenga bag‘ishlangan “Muqaddas taxtizar”, Nasrullo Qobulning Ibrohim (a.s.) tavalludi haqidagi “Namrud”, S.Sirojiddinovning “To‘maris”, Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” kabi asarlari fikrimiz dalilidir.

1996-yil mamlakatimizda Amir Temur yili deb e‘lon qilinishi va 1997-yilda o‘tkazilgan “Navro‘z” festivalining bu shaxsga bag‘ishlanishi natijasida Sohibqiron siymosi aks etgan ko‘plab dramatik asarlar yaratildi va sahnalashtirildi. Xususan, O‘zbek Milliy akademik drama teatrida O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi taniqli rejissyor Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtirildi. Spektaklda Amir Temur ko‘p qirralli, murakkab shaxs sifatida aks ettiriladi, u nafaqat qudratli hukmdor, buyuk sarkarda, ayni vaqtda oddiy inson o‘laroq iztiroblarga to‘la, tuyg‘ulari ichkin, botiniy uyg‘oq siymo bo‘lib ko‘z oldimizga keladi. “Yuksak qahramonlik, tantanavor ruh, muhabbat ustuvor bo‘lgan spektaklda Amir Temur siymosi xalq va mamlakat birligi uchun kurashgan, adolatni bosh shior bilib, o‘z yurtida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan buyuk davlat arbobi, vatanparvar shaxs sifatida ko‘rsatiladi”[6]. Sohibqiron obrazini gavdalantirgan mahoratli aktyor Tesha Mo‘minov bori quvvati, ehtirolari, yurak qo‘rini sarflab, Temur ruhiyati, sajiyasini keng masshtabda ifodalashga, uni biz idrok etgan, tasavvur qilgan yuksak darajada jonlantirishga harakat qildi.

XULOSA. 2017-yildan O‘zbekiston madaniy hayotida yangi sahifa ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan Sh.M.Mirziyoyev adabiyot, san‘at va ma‘naviy faoliyat bilan bog‘liq boshqa sohalarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratdi. 2017-yilning 3-avgust kuni Prezidentimiz yurtimizning ijodkor ziyolilari, adabiyot va san‘at namoyandalari bilan uchrashib, bevosita ijodiy sohalarda yig‘ilib qolgan muammolarni atroflicha tahlil qildi, ularni bartaraf etish yuzasidan taklif-mulohazalarini bildirdi. “Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi mazkur muloqotda mamlakatimizda adabiyot, teatr, kino, musiqa, tasviriy san‘at va boshqa ijod turlarini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb fikrlar o‘rtaga tashlandi. Xususan,

davlatimiz rahbari teatr san‘atida yechimini kutayotgan dolzarb muammolarga ham alohida e‘tibor qaratdi, teatrlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, sahna ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash, xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltiruvchi badiiy-barkamol sahna asarlari yaratish bo‘yicha zarur taklif-mulohazalarini bildirdi.

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlari o‘z davriga oid hujjatlar, rasmiy manbalar, memuarlar, o‘sha zamonda yashagan kishilarning xotiralarida muhrlanadi. Ularni o‘rganish va tahlil qilish o‘sha davrning hukmron mafkurasi, ijtimoiy hayoti va madaniyatidagi o‘zgarishlar, bunga ta’sir etgan omillarni ko‘rish va xulosa chiqarish hamda mohiyatini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma‘naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlangan nutq. 22.12.2023. // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>.
2. Rizayev Sh. “Jadid dramasi”//Mas’ul muharrir N.Karimov/. – T.: Sharq, 1997. – 35-b.
3. Bayandiyev T., Ikromov H., Axmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini – T., 2009. – B.9.
4. Istiqlol va milliy teatr (to‘plam) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
5. Rahmatullayeva D. Tarix va teatr. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.264-265.
6. Rizayev Sh. Istiqlol davri o‘zbek tarixiy dramaturgiyasi // Ozod Vatan saodati. V jildli. V jild (Adabiy tanqid). – Toshkent: “ADIB” nashriyoti, 2013. – B. 303-304.